




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma‘lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.

2023- yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1875,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 163,5 mln. AQSh dollariga yoki 9,5 %ga ko‘paydi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

TSAda eksport hajmi 611,2 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 96,3 %) va import hajmi 1264,0 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 17,4 %) yetdi. Hisobot davrida 652,9 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



## TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-aprel oylariga nisbatan, %da)

2023- yil yanvar-aprel

■ Tashqi savdo aylanmasi ■ Eksport ■ Import





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Xitoy	387,3	108,9	278,4	20,8
Rossiya Federatsiyasi	365,3	119,0	246,3	19,7
Qozog'iston	314,5	28,3	286,2	16,9
Turkiya	198,6	145,2	53,4	10,7
Braziliya	100,2	-	100,2	5,4
Singapur	64,8	35,8	29,0	3,5
Germaniya	46,9	4,0	42,9	2,5
Belorus	45,1	6,9	38,2	2,4
Qirg'iz Respublikasi	34,1	25,3	8,8	1,8
Tojikiston	30,3	12,8	17,5	1,6
AQSh	27,8	22,9	4,9	1,5
Italiya	26,8	8,1	18,7	1,4
Litva	17,4	7,5	9,9	0,9
Vetnam	16,9	0,2	16,7	0,9
Koreya Respublikasi	14,4	2,9	11,5	0,8
Afg'oniston	12,9	12,5	0,4	0,7
Ozarbajon	12,7	5,5	7,2	0,7
Niderland	387,3	108,9	278,4	20,8




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-aprel oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 44,6 %ni hamda o'zgarish sur'ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 107,6 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-aprel oyida 55,4 %ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,6 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,2 %ni tashkil etdi.

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2023- yil yanvar-aprel, % hisobida)






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, AQSh davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2023- yil yanvar-aprel oyi yakuni bilan 611,2 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 96,3 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,8 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (66,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,1 %), turli xil tayyor buyumlar (13,0 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (2,4 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,2 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunolari (2,5 %) guruhleri hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Sanoat tovarlari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Ichimliklar va tamaki
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari
- Xizmatlar



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	611,2	207,9	403,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	61,8	27,9	33,9	10,1	13,4	8,4
Ichimliklar va tamaki	2,6	2,4	0,2	0,4	1,2	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	14,9	4,5	10,4	2,4	2,1	2,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	1,6	0,3	1,3	0,3	0,1	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	25,4	20,9	4,5	4,2	10,1	1,1
Sanoat tovarlari	409,1	68,3	340,8	66,9	32,9	84,4
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	15,4	8	7,4	2,5	3,8	1,9
Turli xil tayyor buyumlar	79,3	75	4,3	13,0	36,1	1,1
Xizmatlar	1,1	0,6	0,5	0,2	0,3	0,1



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2023- yil yanvar-aprel)

2023- yilning yanvar-aprel oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, Mashinalar va transport asbob-uskunalari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.


Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>96,3</b>	<b>97,1</b>	<b>95,9</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	112,6	129,7	101,7
Ichimliklar va tamaki	2,4 m.	2,4 m.	3,4 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	58,6	32,5	89,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	5,6 m.	115,2	27,0 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	142,6	157,4	99,8
Sanoat tovarlari	89,1	73,9	93,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	128,1	67,9	23,4 m.
Turli xil tayyor buyumlar	131,0	127,6	2,4 m.
Xizmatlar	30,0	57,8	18,2





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Singapur, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va AQSh hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 485,4 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 79,4 %ini tashkil qiladi.



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 39,1 mln. dollar qiymatga ega 55,1 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 44,0 %ga ko'paygan, naturada – 34,2 %ga ko'payish bo'lgan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 27,3 mln. AQSh dollariga teng 46,0 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 52,9 %ga ko'paygan), shuningdek, 6,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 4,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 50,7 %ga ko'paygan).

2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSh dollari



Meva va  
rezavorlar  
4,3 ming tonna  
6,7 mln. AQSH  
dollari



Uzum  
4,6 ming tonna  
4,9 mln.  
AQSH dollari



Yeryon-g'ochlar  
0,1 ming tonna  
0,2 mln. AQSH  
dollari



Sabzavotlar  
46,0 ming tonna  
27,3 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 33,9 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,5 %ini tashkil qiladi.




# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar-aprel)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oylari mobaynida import hajmi 1264,0 mln. AQSh dollari (2022- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 117,4 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (27,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (18,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (18,6 %), sanoat tovarlari (13,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (9,8%) hisobiga to'g'ri keldi.





# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>1264,0</b>	<b>610,6</b>	<b>653,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	234,8	99,8	135	18,6	16,3	20,6
Ichimliklar va tamaki	1,8	1,6	0,2	0,1	0,3	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	238,6	198,7	39,9	18,9	32,5	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	99,8	97,9	1,9	7,9	16,0	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	26,2	22,5	3,7	2,1	3,7	0,6
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	123,6	28,9	94,7	9,8	4,7	14,4
Sanoat tovarlari	165	93	72	13,1	15,2	11,0
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	345,5	61,8	283,7	27,2	10,3	43,4
Turli xil tayyor buyumlar	26,5	5,2	21,3	2,1	0,8	3,3
Boshqa tovarlar	0,6	0,4	0,2	0,1	0,1	0,1
Xizmatlar	1,6	0,8	0,8	0,1	0,1	0,1



## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (32,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,3 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (43,4%) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,7 %) hissasiga to'g'ri keladi.

### MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2023- yil yanvar-aprel, % hisobida )

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>117,4</b>	<b>108,5</b>	<b>127,1</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	109,8	96,0	122,8
Ichimliklar va tamaki	177,2	157,8	29,0 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	127,0	113,5	3,1 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	2,3 m.	2,3 m.	2,3 m.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	147,9	129,8	10,7 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	106,2	92,5	111,2
Sanoat tovarlari	75,2	59,0	116,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	152,2	2,6 m.	139,5
Turli xil tayyor buyumlar	58,9	61,7	58,3
Boshqa tovarlar	33,2	21,2	-
Xizmatlar	43,3	2,9 m.	23,6

# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'izton, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Germaniya va Belorussiya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1045,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,7 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (71) 202-86-59